
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Jo'rabek Yarashev

MUSIQA NAZARIYASI

DARSLIK

60111300-musiqa ta'limi yo'nalishi



BUXORO – 2024
«DURDONA» nashriyoti

85.3ya7
78.01(075)
Y 71

Jo'rabek Yarashev.

Musiqa nazariyasi [Matn] : darslik / Jo'rabek Yarashev – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2024. – 120 b.

UO'K 78.01(075)

BBK 85.3ya7

TAQRIZCHILAR:

Davron Ruziyev.

– – Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi..

Raximov Ravshan.

– Buxoro davlat pedagogika instituti “Musiqa
va tasviriy san’at” kafedrasi dotsemti.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini
2024– yil 7 – maydagi “149” – sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida tavsiya
etilgan. Ro'yxatga olish raqami 149099*

ISBN 978-9910-04-526-4

© Jo'rabek Yarashev

Annotatsiya

“Musiqqa nazariyasi” fani darsligi 60111300 – musiqqa ta’limi bakalavr yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan. Darslik o’quv rejada ko’rsatilgan soatlar hajmi yuzasidan fan dasturi hamda O’zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standarti talablari asosida tuzilgan. Darslikdan o’rin olgan barcha mavzular fan dasturi asosida oddiydan murakkabga tomon tamoyilida tuzilgan. Shuningdek, har bir mavzuni mustahkamlash uchun savollar hamda barcha mavzular yuzasidan tuzilgan testlar va musiqqa lug’atiga izoh berilgan.

Annotation

Text book of "Music theory" 60111300 is intended for students who study in the bachelor's degree in music education. The textbook was compiled based on the requirements of the science program and the state education standard of the Republic of Uzbekistan regarding the number of hours specified in the curriculum. All topics included in the textbook are organized from simple to complex based on the science program. Also, there are questions to strengthen each topic, as well as tests made on all topics and an explanation of the music dictionary.

Аннотация

Данный учебник “Теория музыки” предназначен для направления образования 60111300 “Музыкальное образование”. Учебник составлен на основе учебного плана и типовой учебной программе в соответствии с Государственным образовательным стандартом. Приведённое в учебнике темы учебной программы исходят из принципа – от простого к сложному. Вместе с этим к каждой теме разработана контрольные вопросы для закрепления, составлены тесты и глоссарий.

KIRISH

“Musika nazariyasi” fani musika darsining muhim bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Musika nazariyasi o‘quvchilarning saviyasini oshiradi. Musika savodi musiqiy iroda va ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunishga yordam beradi, eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ijro etish malakalarini hosil qilishga hamda garmonik qobiliyatini o‘stirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Musika nazariyasini o‘rganishda qo‘yiladigan asosiy talab - olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo‘llanishi, nota yozish, biror bir cholg‘u asbobida chalish va kuylash kabi malakalarga yordam beradi.

Musika - tovush orqali bayon etilishi – musiqaning ifoda vositalarini o‘zaro bog‘lovchi muayyan qoidalarga bo‘ysunadi. Bu qoidalar xalq va mumtoz musiqaning asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida paydo bo‘ldi.

Musiqani bayon va ifoda etish vositalari musika elementlari deyiladi. Musika nazariyasi musika asarlarini - kuyni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Musika bayonining boshqa vositalari bilan bog‘langandagina ifoda kuchiga ega bo‘lishini yodda tutish kerak. Olinadigan bilimni umumlashtirish maqsadida har bir musika elementi (lad, tonallik, metr, ritm, interval, akkord va boshqalar) haqida ma’lumot beriladi.

Musika- yunoncha “*musike*”, “*musa*” kabi so‘zlaridan olingan bo‘lib, turli xil tovushlardan badiiy obraz yaratuvchi, g‘oyaviy-emotsional mazmunga ega bo‘lgan san’atning bir turi hisoblanadi. Tovushlarning mazmuni insonlarning hayot taassurotlari, fikr va his tuyg‘ulari, quvonch va tashvishlari tovush bo‘yoqlari orqali ifodalanadi.

Musika ta’lim tizimining boshlang‘ich qismi - musika nazariyasi - musiqaning asosiy elementlari, kuy va uning xususiyatlarini o‘rganish asosiy vazifalaridan biridir. Olinadigan

bilimlarni umumlashtirish maqsadida har bir musiqa elementi haqidagi ma'lumot darslikning alohida boblariga kiritilganligiga qaramay, o'quvchi shuni yodda tutishi kerakki, musiqa elementlari faqat bir-biri bilan bog'liqligidagina o'zining ifodali xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin.

“Musika nazariyasi” nomi bilan yuritiladigan bu darslik musiqiy ta'lim tizimining dastlabki qismi bo'lib, u nota, nota chiziqlari, nota yozuvi, notalarning bo'linishi, kalit va ularning turlari hamda vazifasi, tovushlar cho'zimlari va ularning nota bilan yozilishi, musiqaviy tizim, tovushqator, pog'onalar shuningdek, murakkab metr va o'lchovlar, lad, major va minor lادلari, interval, uchtovushliklar, akkordlar, septakkord va ularning turlari hamda musiqaning asosiy elementlari, kuy va uning xususiyatlari, musiqiy bezaklar to'g'risida bilim beradi. Darslikdan o'rin olgan barcha mavzular fan dasturi asosida tuzilgan bo'lib, oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida joylashtirilgan. Shuningdek, darslikdan joy olgan va aynan barcha mavzular asosida tuzilgan test savollari hamda musiqa lug'atiga tartib berilgan.

Ushbu darslik musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy o'quv yurtlarining musiqa fakulteti (bo'limi), ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablari o'qituvchi hamda o'quvchilariga mo'ljallangan.



I BOB. TOVUSH VA UNING XUSUSIYATI


1.1.TOVUSH. MUSIQA TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI



Musiqada “Tovush” so’zi ikki xil tushunchani bildiradi:

-  fizik holatdagi tovush,
-  sezgi holatdagi tovush.

Egiluvchan jismning, ya’ni cholg’u asbobi torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga to’lqinsimon tebranishlar hosil bo’ladi. Bunday tebranishlarga **tovush to’lqini** deyiladi. Fizikada tebranishlar o’lchovi sifatida tebranadigan jismning bir sekunddagi tebranishlari soni **gerts**¹ (gts) qabul qilingan.



Shu tovush to’lqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilinib nerv sistemasi orqali bosh miyaga o’tib, tovush sezgisini hosil qiladi. Tovush to’lqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach, unga ta’sir etadi va asab tuzilmasi (analizator) orqali bosh miyaga o’tib, tovush sezgisini qo’zg’atadi.

Biz juda ko’p xilma – xil tovushlarni eshitamiz. Lekin bu tovushlarning hammasi ham musiqada qo’llanilmaydi. Inson qulog’i bir sekundda **17 gts** dan **20000 gts** gacha bo’lgan


¹ Gerts – ushbu hodisani ochgan fizik olim nomiga qo’yilgan atama.

tebranishni eshita oladi. Qulog'imiz musiqa tovushlari bilan shovqinli tovushlarning bir-biridan farqini ajrata oladi. Shovqinli tovushlar aniq balandlikka ega emas. Lekin musiqada ulardan ham keng foydalaniladi.



Musiqiy tovushlar esa ma'lum balandlikka ega bo'lib, insonning eshitish organi bu tovushlarni darrov payqab qoladi. Musiqiy tovushlar o'z xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Musiqaviy tovushning 4 xil fizik xususiyati mavjud. Bular tovushning **balandligi**, **qattiqligi**, **davomiyligi (uzunligi)** va **tembridir**.

Tovushning balandligi - tebranuvchi jismning tezligiga bog'liq. Tebranish qancha tez bo'lsa, tovush shunchalik baland bo'ladi. Tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush shunchalik past bo'ladi.



Tovushning qattiqligi-tovush manbai bo'lgan jismning tebranish kuchiga bog'liq. Tebranish qancha katta bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha.

Tovush cho'zimi-tovush manbai bo'lgan tebranishning davom etishiga bog'liq. Tovush boshlanganda tebranish doirasi

qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi.

Tembr deb tovushning sifat xususiyatiga, uning rang-barangligiga aytiladi. Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'zining xarakterli xususiyatiga ega.

Mavzuga oid savaollar:



1. Inson qulog'i bir sekundda necha mingga bo'lgan tebranishni eshita oladi?

2. Musiqiy tovushlar shovqinli tovushlardan nimasi bilan farqlanadi?

3. Shovqinli tovushlar ham musiqada qo'llaniladimi?

4. Musiqiy tovushlar necha xil xususiyatga ega?

1.2 NOTA VA NOTA CHIZIQLARI. NOTA YOZUVI.

Nota yozuvining imlosi hozirgi ona tilimizning imlo va grammatika qoidalari yozuviga o'xshamaydi. Nota yozuvining o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. U biz eshitadigan va tinglaydigan musiqa tovushlarini yozib olish uchun ishlatiladigan maxsus grafik belgidir. Nota yozuvining eng qadimiylari **harf, raqam, nuqta, vergul, chiziqcha** kabi turli xil belgilar bilan ifodalangan. Bu belgilar Yevropada "**Nevm yozuvi**" nomi bilan yuritilgan. XI asrga kelib "**Menaural notatsiya**" nomi bilan yuritiladigan to'rt chizikli nota yo'li paydo bo'ladi. XV asrdan boshlab esa, hozirda biz musiqa ijrochiligida foydalanib kelinayotgan gorizontaal besh chizikli nota yo'li vujudga keladi. Bu tizimning paydo bo'lishida dunyodagi barcha xalqlarning hissi bor. Jumladan, Sharq xalqlari musiqasini Al Forobiy va Ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Chunki, ularning musiqa ilmi sohasidagi buyuk xizmatlarini jahon musiqa madaniyatining taniqli musiqashunos olimlari ham alohida e'tirof etganlar. Nota yozuv tizimi Italiya va Gretsiyada, shuningdek, Sharq mamlakatlarida, ayniqsa, Hindiston va Markaziy Osiyoda keng rivoj topadi va o'zaro madaniy aloqalar vositasida umumlashib, umumjahon nota yozuv tizimi vujudga keladi. Natijada jahondagi barcha xalqlarning musiqasi yettita asosiy musiqiy tovush - **do, re, mi, fa, sol, lya, si** deb aytiladigan nomlar bilan yuritila boshlaydi.

Demak, hozirgi nota yozuvi turli xalqlarning nota yozuvi zahirida vujudga kelgan, musiqiy tovushlarning nomlari barcha millatlar uchun umumiy bo'lgan. Shuning uchun biz turli xalqlar ijodiga mansub bo'lgan musiqa asarlarini nota yozuvi vositasida tarjimasiz o'qib ijro qilamiz va idrok etamiz.

Bundan xulosa shuki, musiqa tili – umumbashariy til. Shuning uchun dunyo olimlari musiqani xalqaro til deb e'tirof etganlar.


Nota- lotincha, italyancha “*nota*” so'zidan olingan bo'lib, “belgi” degan ma'noni anglatadi. Nota-musiqiy tovushlarni yozib ko'rsatuvchi maxsus belgi. Musiqada tovushlarni yozish uchun aylanasiimon shaklga ega bo'lgan belgi qabul qilingan.

Notalar tovushning baland-pastligi va cho'zimini belgilaydi. Tovushning baland-pastligini aniqlash uchun notalar beshta parallel gorizantal chiziqlardan iborat nota yo'liga yoziladi.

Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi.



Notalar nota chiziqlarida:




Notalar chiziqlar orasida:




Nota birinchi asosiy chiziqning ostida:



Nota beshinchi asosiy chiziqning ustida:




Notalar qo'shimcha chiziqlarda:




Nota pastdan birinchi qo'shimcha chiziq ostida:




Nota yuqoridan birinchi qo'shimcha chiziq ustida:



Nota pastdan ikkinchi qo'shimcha chiziqda:



Nota yuqoridan ikkinchi qo'shimcha chiziqda:




yoziladi va hokazo:


Shu tartibda barcha nota yozuvi pastga va yuqoriga tomon beshinchi qo'shimcha chiziqqa qadar davom etadi.


Musiqqa olamida juda ko'p turli xil tovushlar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari faqat yettita: **do, re, mi, fa, sol, lya, si**

Bu musiqa alifbosidagi yettita tovush skripka kaliti bilan nota chiziqlarida quyidagi tartibda yoziladi:



Yuqorida yozilgan bu yettita asosiy tovush fortepiano cholg'u asbobining o'rta qismida joylashgan bo'lib, fortepianoning oq klavishlari (pog'onalariga to'g'ri keladi.





Musiqa ijrochiligida skripka kalitida yozilgan quyidagi tovushlardan juda ko'p foydalaniladi:



Mavzuga oid savollar:

1. Nota nima?
2. Notalar qayerda yoziladi?
3. Quyidagi misolda ko'rsatilgan notalar nomini ayting.



4. Tovushning baland-pastligini aniqlash uchun notalar qayerda yoziladi?


1.3 KALITLAR

Tovushning balandligi va nomini aniqlab beruvchi maxsus belgi –**musiqiy kalit deyiladi**. Musiqiy kalit nota yo'lining boshida asosiy chiziqlarning birida qo'yiladi va u nota yo'lidagi chiziqlardan birining markazidan kesib o'tadi. Kalit belgisi o'sha chiziqda turgan notaning ma'lum balandlikdagi tovush ekanligini va nomini aniqlab beradi. Qolgan barcha notalarning nomi va balandligi manashu nota asosida belgilanadi. Musiqa nazariyasida musiqiy kalitlarning **skripka, bas, soprano, alt, tenor, metso-soprano** va **bariton** kabi turlari mavjud. Hozirgi vaqtda musiqa amaliyotida asosan uchta xilma-xil kalitlar keng qo'llaniladi.

1. Skripka (*sol*) kaliti.
2. Bas (*fa*) kaliti.
3. Do (*alt* va *tenor*) kaliti.

Skripka (sol) kaliti.


Skripka kaliti ikkinchi asosiy chiziqda joylashgan bo'lib, birinchi oktavaning **sol** tovushi balandligi va nomini bildiradi.



Skripka kaliti—"sol" kaliti deb ham yuritiladi.

Bas (fa) kaliti.

Bas kaliti pastki musiqa tovushlarini yozib olish uchun ishlatiladi. Bas kaliti to'rtinchi asosiy chiziqda joylashgan bo'lib, ikkita nuqta bilan ko'rsatiladi va kichik oktava **fa** tovushi balandligi hamda nomini bildiradi.




Do (*alt* va *tenor*) kaliti.

Hozirda ikki xil **do** kaliti mavjud. Ular **alt** va **tenor**.

Alt kaliti-uchinchi asosiy chiziqda joylashgan bo'lib, **do** birinchi oktava tovushi balandligini bildiradi.




Tenor kaliti-to'rtinchi asosiy chiziqda yozilgan bo'lib, bu kalit ham **do** birinchi oktava tovushini bildiradi.




Alt kaliti-alt va trambon musiqa cholg'u asboblari uchun yozilgan musiqa asarlarini ijro etish uchun ishlatiladi.

Tenor kaliti esa violonchel, fagot kabi musiqa asboblarning partiyalarini chalish uchun qo'llaniladi.

Metso-soprano kaliti ikkinchi asosiy chiziqda yozilgan bo'lib, bu kalit ham do birinchi oktava tovushini bildiradi.



Bariton kaliti beshinchi asosiy chiziqda yozilgan bo'lib, bu kalit ham do birinchi oktava tovushini bildiradi.



Mavzuga oid savollar:



1. Musiqiy kalitlarning vazifasi nimadan iborat?
2. Kalitlar nomini aytib bering.
3. Skripka kalitini ta'riflab bering.
4. Bas kalitini ta'riflang.
5. Do kalitining asosan necha xili bor? Ularni sanab, tahlil qiling.
6. Tenor kaliti qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
7. Fortepiano cholg'u musiqasini yozishda asosan qaysi kalitlardan foydalaniladi?